

BURGUTXONOV Saidumarxon Sirojiddin o'g'li
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Dinshunoslik va jahon dinlarini
qiyosiy o'rganish UNESCO kafedrası o'qituvchisi
sayyidumarxon98@gmail.com

RAXMONOV Sunnatullo Negmat o'g'li
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi
suniraxmo@gmail.com

TOHIR MAQDISIY ILMIY MEROSINING QIYOSIY DINSHUNOSLIK SOHASIDA TUTGAN O'RNI

THE ROLE OF TOHIR AL- MAQDISI'S INTELLECTUAL HERITAGE IN COMPARATIVE RELIGIOUS STUDIES

ЗНАЧЕНИЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ТАХИРА АЛЬ- МАКДИСИ В РАЗВИТИИ СРАВНИТЕЛЬНОГО РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ

Annotatsiya: Ushbu maqolada IX – X asrlarda yashab o'tgan olim Tohir Maqdisiyning hayoti va faoliyati, olimning qiyosiy dinshunoslikka oid asarlari, bu borada o'rganilgan tadqiqotlar hamda Tohir Maqdisiyning bizgacha yetib kelgan yagona “al-Bad va-t-tarix” (Ibtido va tarix) nomli asari, hamda asarning boshqa dinlar va ularning manbalarini o'rganishdagi va bugungi kundagi ahamiyati bayon qilinadi. “Al-Bad va-t-tarix” asari nafaqat tarix uchun, balki, madaniyat va dinlar tarixi, kalam va islom falsafasi uchun ham muhim manba hisoblanadi. Asar yigirma ikki bobdan iborat bo'lib, asarda ilm, jaholat, aql va hissiyot, aqida, tavhid, payg'ambarlik, risolat, xalifaliklar, sahobalar, turli dinlar, e'tiqodlar, mazhablar, adashgan firqalar hamda ularga berilgan raddiyalar aks etadi.

Kalit so'zlar: Tohir Maqdisiy, “Al-bad va-t-tarix” (Ibtido va tarix), milal va nihal, somoniylar, dinlar, shariatlar, toifalar, yahudiylar, xristianlar, hindlar, xitoylar.

Abstract: This article examines the life and scholarly activity of the 9th–10th century scholar Tahir al-Maqdisi, with particular attention to his contributions

to comparative religious studies. It analyzes his works related to the study of religions, the research conducted on his intellectual legacy, and especially his only extant work, ‘al-Bad’ wa al-Tarikh’ (The Beginning and History). The article highlights the significance of this work in the study of other religions and their sources, as well as its contemporary relevance. ‘Al-Bad’ wa al-Tarikh’ constitutes an important source not only for historical studies, but also for the history of culture and religions, kalam (Islamic theology), and Islamic philosophy. The work consists of twenty-two chapters and addresses such themes as knowledge and ignorance, reason and emotion, creed, monotheism, prophethood, messengership, the caliphates, the Companions, various religions, beliefs, legal traditions, sects, deviant groups, and the refutations directed against them.

Keywords: Tahir al-Maqdisi, ‘al-Bad’ wa al-Tarikh’ (The Beginning and History), ‘milal wa nihal’, the Samanids, religions, religious laws, sects, Jews, Christians, Indians, Chinese.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь и научная деятельность учёного IX–X веков Тахира аль-Макдиси, а также его вклад в развитие сравнительного религиоведения. Анализируются труды учёного, посвящённые изучению религий, исследования, проведённые в этой области, а также единственное дошедшее до нас произведение Тахира аль-Макдиси – «аль-Бад ва-т-Тарих» («Начало и история»). Особое внимание уделяется значению данного труда в изучении других религий и их источников, а также его актуальности в современный период. Произведение «аль-Бад ва-т-Тарих» является важным источником не только по истории, но и по истории культуры и религий, каламу (исламскому богословию) и исламской философии. Труд состоит из двадцати двух глав и охватывает такие темы, как знание и невежество, разум и чувства, вероучение, единобожие, пророчество, посланничество, халифаты, сподвижники, различные религии, верования, правовые традиции, секты, заблудшие течения и опровержения, направленные против них.

Ключевые слова: Тахир аль-Макдиси, «аль-Бад ва-т-Тарих» («Начало и история»), милал ва нihal, Саманиды, религии, шариаты, секты, иудеи, христиане, индийцы, китайцы.

KIRISH

Islom tarixida turli din va e'tiqodlarning kelib chiqishi, ularning aqidaviy asoslari hamda islom manbalarida qanday talqin etilgani muhim ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ilk o'rta asr musulmon olimlari tomonidan boshqa dinlar,

madaniyatlar va falsafiy qarashlarni tizimli ravishda o'rganish jarayoni keyinchalik shakllangan dinshunoslik (milal va nihali) an'anasining paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Mazkur yo'nalishda faoliyat olib borganlar orasida tarixchi, faylasuf va mutakallim sifatida tanilgan Mutahhar Tohir Maqdisiy alohida o'rin egallaydi. IX – X asrlarda yashagan Tohir Maqdisiy o'zining “البدء والتاريخ” - “al-Bad va-t-tarix” (“Ibtido va tarix”) asari orqali nafaqat umumiy tarixni, balki turli diniy e'tiqodlar, xalqlarning qadimiy qarashlari, metafizik tasavvurlari va aqidaviy ta'limotlari haqida muhim ma'lumotlar keltirgan. Asarda yahudiylik, xristianlik, majusiylik, hind diniy qarashlari hamda qadimgi xalqlarning ibodat shakllari haqida bayon etilgan ma'lumotlar, Tohir Maqdisiyning boshqa dinlarni rad etish emas, balki ularni tushunish va ilmiy tahlil qilishga intilganini ko'rsatadi. Bu jihati bilan Tohir Maqdisiyning asari keyinchalik shakllangan “الملل والنحل” (Milal va nihali) adabiyoti uchun muhim tarixiy bosqichlardan biri sifatida hisoblanadi.

Tohir Maqdisiy boshqa dinlarni o'rganishda rivoyatlarga ko'r-ko'rona tayanmasdan, kuzatish, muloqot va qiyosiy tahlil usulidan foydalangan. Tohir Maqdisiy turli diniy jamoalar bilan bevosita muloqot qilgani, ularning muqaddas manbalari va e'tiqodiy qarashlarini o'rganishga harakat qilgani bilan ajralib turadi. Shu sababli ham Tohir Maqdisiyning asari nafaqat dinshunoslik sohasida, balki kalom ilmi rivojida ham muhim o'rin tutadi.

Maqolada tavsifiy-tahliliy, qiyosiy metodlardan foydalanilib, Tohir Maqdisiyning faoliyati va bizgacha yetib kelgan yagona “al-Bad va-t-tarix” asari, uning dinshunoslik sohasidagi ahamiyati va bugungi kunda asar borasida olib borilgan va olib borilayotgan tadqiqotlar haqida bayon qilindi.

ASOSIY QISM

Olimning to'liq ismi Abu Nasr Mutahhar ibn Tohir Maqdisiy hisoblanib, u taxminan hijriy III asr (milodiy IX asr oxirlari)da tug'ilgan. Tohir Maqdisiyning nasabi to'g'risidagi ma'lumotlarga qaraganda, uning Quddus shahrida tug'ilgani yoki u yerda istiqomat qilgan oilaga mansubligini ko'rsatadi. Tohir Maqdisiyning ismi biografik yoki tarixiy kitoblarda uchramaydi. Bundan tushunish mumkinki, Tohir Maqdisiy to'g'risida xabar beruvchi manbalar juda kam. Biroq, olimning shoh asari bo'lgan “al-Bad va-t-tarix”dagi ba'zi

ma'lumotlardan uning hayoti va shaxsiyati haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Tohir Maqdisiy mo'taziliy qarashlari bilan tanilgan mashshoiy faylasuf Ya'qub ibn Is'hoq al-Kindiyning shogirdi Abu Zayd Balxiydan ta'lim olgan, Tohir Maqdisiyning qiziqish doirasi kengligiga qarab aytish mumkinki, u turli sohalarda chuqur ta'lim olgan [8: 432-434].

Tohir Maqdisiyning asarlarini o'rganish natijasida olim sayohat qilgan joylarda ustozlardan hadislarni tinglagan va rivoyat qilganligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Uning asarida u tashrif buyurgan turli shahar va hududlarga – Baytulahm, Qohira, Yuqori Misr, Tikrit (Iroqning markaziy qismidagi shahar u yerda xristianlik monastri mavjud bo'lgan) va Basraga borganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Basrada u yahudiy olimi bilan munozara qilgan. Shuningdek, u Makkaga haj qilgan va Eronning ko'plab shaharlariga ham sayohat qilgan. Tohir Maqdisiyning bu sayohatlarni qanday tarzda amalga oshirgani va Somoniylar saroyida qanday lavozimda faoliyat yuritgani noma'lum [7: 149]. Shamsiddin Zahabiy “Siyar a'lam anunubalo” asarida Tohir Maqdisiy haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan: “Abul Qosim ibn Asokir Hofiz Ismoil ibn Muhammadni shunday deganini eshitganman, “Muhammad ibn Tohirdan ko'ra quvayi hofizasi kuchli kishini uchratmadim” [10: 363].

Tohir Maqdisiy manbalardan ma'lumot olish va baholashda puxta bo'lgan, ba'zi dinlar va mazhablarni shaxsan bilish uchun uzoq va mashaqqatli sayohatlarga borgan. Masalan, Ahvazdagi ibodatxonaga kirib, zardushtiy ruhoniylari bilan Avestodagi Xudo tushunchasi haqida munozara qilgan. Yuqori Misrdagi qibtiylar ta'limotidagi Xudo tushunchasini o'rgangan, Mosabazin va Mehrijon Qozoqda xurramiylar an'alarini o'rganib chiqqan. Forsda bir majusiy ruhoniyaning uning muqaddas kitoblariga ko'ra dunyoning yoshi borasidagi ma'lumotlarni jamlagan. Basrada bir yahudiy ruhoniyaning hazrati Odamning yaratilishi haqida ma'lumot olgan, Iroqi Ajam chegarasidagi Bilodi Soburda Xudolikka da'vo qiluvchi shaxs va uning mazhabini o'rganish uchun bir necha bor u yerga tashrif buyurgan [8: 432-434]. 937-yilda Kirmonning Shirvon shahrida bo'lganligini o'z asarlarida bayon etgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, Maqdisiy dinlar ta'limotlarni

o'rganishda kitoblardagi ma'lumotlar bilan chegaralanmasdan, har bir din vakillari bilan uchrashib ularning aqidalarini o'zlaridan o'rgangan.

O'z davrida tarix ilmi borasida chuqur ilmga ega bo'lgan Tohir Maqdisiy tarix, geografiya, dinlar va mazhablar tarixi, matematika, falsafa va kalom ilmiga qiziqish bildirgan ko'p qirrali olim hisoblanadi. Tohir Maqdisiyning mo'taziliylarning ba'zi kalom qarashlarini qabul qilganligini yoki dalillardan foydalanganligi sababli uni mo'taziliy bo'lgan, degan fikrlar ham mavjud. Biroq, olim yashagan davrni hisobga olinsa, u davrda muayyan mazhabga mansublik masalasi ko'plab olimlar uchun murakkab bo'lganini ham unutmaslik kerak. Boshqa guruh olimlarning fikrlaricha, Tohir Maqdisiyning tarix haqida tushunchasi shakllanishida mo'taziliy tafakkur tizimi va madaniy muhiti muhim o'rin tutgan. Chunki, Tohir Maqdisiy o'z asarlarida bir asrda yashagan bo'lsa ham Imom Moturidiydan iqtibos keltirmasligi, Imom Ash'ariyning zimdan tanqid qilishi va Abu Zayd Balxiydan ilhomlangani uning mo'taziliylikka moyilligini ko'rsatadi [4: 5-6].

IX asr oxirida Abu Ja'far at-Tabariy (vaf. 923) ning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" asari bilan musulmon olamida tarix mustaqil fan va soha darajasiga ko'tarildi. Abbosiylar davridagi tarjima harakati, yunon, fors va hind ilmlarining o'zlashtirilishi, imperiya kengayishi va turli madaniyatlar bilan bevosita muloqot natijasida tarixshunoslik jadal rivojlanish bosqichiga o'tdi. Tohir Maqdisiy o'zining falsafa va kalom ilmi bilan uzviy bog'langan "kalom-tarix" yondashuvi bilan Beruniy va Ibn Miskavayh kabi buyuk olimlar qatorida, Ibn Xaldunning "Muqaddima" asarigacha bo'lgan jarayonda muhim o'rin egallaydi. U tarixni yaratilishdan boshlab, dinlar, e'tiqodlar va falsafiy masalalarni qiyosiy tahlil qilish orqali keyingi avlod tarixchilariga yangi yo'nalish ochdi [8: 432-434].

X asrda mo'taziliylar orasida tarix, xususan dinlar va mazhablar tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar bo'lgani bilan, ularning qarashlarini o'z asarlarida aks ettiruvchi tarixchi chiqmagan edi. Tohir Maqdisiyning "al-Bad va-t-tarix" asari bu boradagi birinchi, ehtimol, bizgacha yetib kelgan yagona tarixiy asardir. Tohir Maqdisiy ushbu asarida borliq va hayotni falsafa-tarix yoki kalom-tarix kabi yaxlitligiga asoslangan qarash bilan o'zaro bog'lashga intilgan. Tohir Maqdisiy umumiy doirada falsafa va tarix munosabatini asoslar ekan,

kalom yo'nalishidagi falsafiy bilimga tayangan [8: 432-434]. Bu jihatdan esa, uning metodologiyasi X asrning eng muvaffaqiyatli olimi bo'lgani va uning uslubini davom ettiruvchilar chiqmagani sababli bu yondashuvning yagona vakili hisoblanadi.

Tohir Maqdisiyning yana bir o'ziga xos uslubi shundan iboratki, olim ushbu asarida Qur'oni karimdan, hadislardan, islomdan oldingi va islom davridagi mavjud bo'lgan arab, fors she'riyatini, solnomalar va harbiy yurishlar kitobini manba sifatida foydalangan. Tohir Maqdisiy Aristotel va Plutarxning "al-Aro at-Tabiiyya" (Tabiatga oid nazariyalar) kabi asarlarini falsafa uchun asosiy manba qilib olgani va faylasuflarning qarashlarini aniq sharhlab yetkazib berishda Shahristoniy va boshqa ba'zi musulmon olimlardan ancha oldinda bo'lganligiga guvoh bo'lish mumkin [8: 432-434].

Tohir Maqdisiy bir necha ilm sohalari bo'yicha faoliyat yuritib, tarix, jug'rofiya, kalom, mazhab, dinlar tarixi, matematika kabi fanlarga oid 10 yaqin asar yozgan. Siyar va tarix janrida yozilgan asarlarda Tohir Maqdisiy haqida kelgan ma'lumotlarga ko'ra, uning qalamiga mansub hisoblangan bir nechta asarlar mavjud bo'lib ular quyidagilar:

1). "كتاب العلم والتعليم" (Kitob al-ilm va't-ta'lim)- "Ilm va ta'lim kitobi" - bu asar ilm-fan, ta'lim-tarbiya va Allohning borligini aqliy dalillar bilan isbotlash (tavhid va ilohiyot)ga bag'ishlangan. Tohir Maqdisiy "al-Bad va-t-tarix"ning birinchi bo'limida bu kitob xususida alohida to'xtalib, uni "ilm va ta'lim" mavzusidagi maxsus asar deb ta'riflaydi. Hozirgi kunda ushbu asarning to'liq nusxasi topilmagan, faqat "al-Bad va-t-tarix"da unga ishora mavjud [6].

2). "كتاب الديانة والأمانة" (Kitob ad-diyona va'l-amonah)- "Din va omonat kitobi" yoki "Diyonat va ishonch kitobi"- bu asar dualistik dinlar (zardushtiylik, manixeylik va shunga o'xshash yaxshilik-yomonlik o'rtasidagi kurash kabi ikki tamoyiliga asoslangan ta'limotlar) va ularning aqidaviy qarashlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tohir Maqdisiy bu dinlarni tanqidiy nuqtayi nazardan o'rganib chiqqan. Kitob to'liq holda saqlanib qolmagan, faqat "al-Bad va-t-tarix"da nomi tilga olingan [6].

3). "كتاب المعادلة أو كتاب المعادلة" (Kitob al-mua'dala av al-mu'adala)- "Muvozanat kitobi" yoki "Qiyos va muvozanat kitobi"- bu asar Qur'oni karimdagi qissalar (payg'ambarlar hayoti va

voqealari)ni o'rganishga oid. Tohir Maqdisiy bu asari orqali Qur'on qissalarining ichki uyg'unligini ko'rsatishni maqsad qilgan. Ushbu asarning hozirda to'liq nusxasi yo'q, Tohir Maqdisiyning "al-Bad va-t-tarix" kitobida bu asar haqida ishora qilingan [5].

4). "كتاب معاني القرآن أو كتاب المعاني" (Kitob ma'oniy al-Qur'on av Kitob al-ma'oniy)- "Ma'nolar kitobi" yoki "Qur'on ma'nolari kitobi" - bu asar Qur'on oyatlarining lug'aviy va ma'naviy ma'nolarini tushuntirishga (tafsir va ma'oni ilmiga) bag'ishlangan klassik tafsir yo'nalishidagi asar hisoblanadi. Ushbu asar to'liq saqlanmagan, faqat u haqida nom va qisqa tavsif saqlanib qolgan [6].

5). "كتاب النفس والروح" (Kitob an-nafs va'r-ruh) - "Nafs va ruh kitobi" - bu asar inson nafs, ruhi, ruhiyati va ularning tabiati haqidagi falsafiy-psixologik asar. Islom falsafasida nafs va ruh masalalarini ko'rib chiqadi. Hozirgi kunda ushbu asarning to'liq nusxasi topilmagan, faqat "al-Bad va-t-tarix" da eslatib o'tilgan [6].

Maqdisiyning yuqoridagi asarlari turli manbalarda zikr qilingan ammo bizga qadar yetib kelmagan. Tohir Maqdisiyning bizga qadar yetib kelgan yagona asari "al-Bad va-t-tarix" hisoblanib 966-yilda Bust shahrida yozilgan ensiklopedik, tarixiy-diniy asardir. Ma'lum bo'lishicha, somoniy vazirlaridan birining tashabbusi bilan somoniy shahzodasi nomiga yozilgan "al-Bad va-t-tarix" asari Tohir Maqdisiyning ustoz Abu Zayd Balxiyga nisbat berilgan. Tohir Maqdisiyning "al-Bad va-t-tarix" kitobi insoniyat tarixiga bag'ishlangan bo'lib, asarda qadimgi Xitoy, hind, turk, fors dinlari, shuningdek, yahudiylik, nasroniylik va sobiiylik to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan [2: 10].

"Al-Bad va-t-tarix" asarini Abu Zayd Balxiyga nisbat bergan ilk olimlardan biri bu Ibn Vardiydir. Keyinchalik Kotib Chalabiy ham, qo'lyozma nusxasining muqaddimasidagi ma'lumotlarga tayanib asarni Balxiyga nisbat berib ta'riflaydi [1: 289-290]. Abul-Maoliy Muhammad ibn Ubaydulloh "Bayonul-adyon" asarida "al-Bad va-t-tarix" asari Tohir Maqdisiyniki ekanligini aytadi va undan iqtiboslar keltiradi. Ibn Nadim o'zining "al-Fihrist" asarida zamondoshi bo'lgan Balxiyning barcha asarlariga o'rin bergan bo'lsa-da, bu asar haqida so'z yuritmasligi mazkur kitobning Tohir Maqdisiyga tegishli ekanligini tasdiqlaydi [1: 289-290].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "al-Bad va-t-tarix" asarining Tohir Maqdisiyga tegishli ekanining eng muhim dalili Abu Zayd Balxiy vafotining hijriy 322-yilda sodir bo'lganligidir. Asar esa, hijriy 355-yilda yozilgan deb e'tirof etiladi. Ko'rinib turibdiki, ko'plab manbalarda asar muallifi sifatida Tohir Maqdisiyga nisbat berilmoqda [4: 19].

"Al-Bad va-t-tarix" asarining bugungi kunda to'rtta qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib ularning barchasi hozirda Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadi. Qo'lyozma nusxalarining ikkitasi to'liq, bittasi to'liq bo'lmagan holda, yana biri esa, qisqartma shaklida saqlanmoqda. Quyida ushbu qo'lyozmalar haqida qisqacha ma'lumot keltiriladi:

1. 3046-raqamli "Ayosofiya nusxasi", 219 sahifadan iborat bo'lib, bu nusxada asarning nomi "مختصر من تاريخ البدء" (Muxtasar min tarixi al-Bad), ya'ni asarning qisqacha bayoni deya qayd etilgan. Saqlanayotgan qo'lyozmalar orasida faqat ushbu qisqartma nusxada asar muallifi sifatida Tohir Maqdisiyga nisbat berilgan [4: 15-16].

2. 918-raqamli "Damat Ibrohim Posho nusxasi", 226 sahifadan iborat bo'lib, muallif sifatida Abu Zayd Balxiyga nisbat berilgan ushbu nusxa hijriy 663-yilda (milodiy 1265-yil) Halil ibn al-Husayn al-Kurdiy al-Valashjirdiy tomonidan ko'chirilgan [4: 15-16].

3. 315-raqamli "Yusuf og'a nusxasi", 158 sahifadan iborat. Asarning faqat uchinchi jildini o'z ichiga olgan ushbu to'liq bo'lmagan qo'lyozmada muallif sifatida Abu Zayd Balxiy e'tirof etiladi. Bu qo'lyozma nusxasi ham Damat Ibrohim Posho nusxasi bilan bir xil bo'lib, hijriy 663-yilda (milodiy 1265-yil) Halil ibn al-Husayn al-Kurdiy al-Valashjirdiy tomonidan ko'chirilganligi qayd etilgan [4: 15-16].

4. 701-raqamli "Raisulkuttap nusxasi", 233 sahifadan iborat bo'lib hijriy 1006-yilda (milodiy 1598-yil) Alouddin Sha'roviy tomonidan ko'chirilgan bu qo'lyozmada muallifning nomi da'lat qayd etilmagan, keyinchalik esa, Tohir Maqdisiyning nomi qo'shimcha tarzda kiritilgan [4: 15-16].

"Al-Bad va-t-tarix" asari birinchi marta fransuz sharqshunosi Klemant Imbault Huart tomonidan Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi tarkibiga kiruvchi Damat Posho fondida saqlanayotgan qo'lyozmasidan nusxa ko'chirilib, fransuz tiliga "Le livre de la creation et de l'histoire" nomi bilan

oltita jild ko‘rinishida nashr etilgan. Keyinchalik asar Maktabatul-Musanna tomonidan Bag‘dodda 1962-yilda uch jild (olti juz) shaklida ofset bosmada qayta nashr etildi. Shuningdek, asarning IV–VI jildlari “Aferinish va Tarix” nomi bilan fors tiliga tarjima qilinib, 1970-yilda Tehronda oltita jildda chop etildi. XX-XXI asrlarda Bayrut va Qohirada ham turli nashrlari bosildi. Jumladan, 1997-yilda, Halil Imron al-Mansur va 2015-yilda, Bin Mizyan Sharkiy tomonidan taqdim qilingan va unda muqaddima hamda izohlar bilan qayta nashrga tayyorlangan bo‘lib, bugungi kunda zamonaviy ilmiy nashrlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [4: 3-4].

Tohir Maqdisiy o‘z asarini 966-yilda Sijistonning Bust shahrida yozib tugatgan. Asarni yozishda faqat islom dini manbalaridan emas, balki yahudiy va hind manbalaridan ham foydalangan. Hind e‘tiqodlari haqidagi asosiy yozma manba Ibn Xurdozbehning “Kitob al-masalik va-l-mamalik” asaridir [8: 432-434]. Tohir Maqdisiy Vizantiya, Hindiston va Xitoy tarixi haqida ma‘lumotlarning yetishmasligi va bu sohaga musulmonlarning qiziqishi yo‘qligini ta’kidlaydi.

“Al-Bad va-t-tarix” asari nafaqat tarix uchun, balki, madaniyat va dinlar tarixi, kalom va islom falsafasi uchun ham muhim manba hisoblanadi. Asar yigirma ikki bobdan iborat bo‘lib, asarda ilm, jaholat, aql va hissiyot, aqida, tavhid, payg‘ambarlik, risolat, xalifaliklar, sahobalar, turli dinlar, e‘tiqodlar, mazhablar, adashgan fiqrolar hamda ularga berilgan raddiyalar aks etadi. Asar quyidagi boblardan tashkil topgan:

1-bob. “في تثبيت النظر وتهذيب الجدل” (*Fi tasbit an-nazar va tahzib al-jadal*) – “Nazariy mushohadani mustahkamlash va bahs-munozarani tartibga solish haqida” deb nomlangan. Unda, ilm va jaholatning ma‘nosi, ilmning turlari, darajalari va bo‘linishi, aql va ma‘qul, hissiyot va seziladigan narsalar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, xabarlarining darajalari, ta‘rif va dalil, vosita va qarshi dalil, qiyos, nazar va ijtihod masalalari bayon qilinadi. Dalil bilan vosita o‘rtasidagi farq, ta‘riflar, cho‘zilish (imtidad), hodisa va arazlarning paydo bo‘lishi, nazar ahli va sust fikrlovchilar haqida fikr yuritiladi. Yana nazarning darajalari va chegaralari, hamda fikrning to‘xtash belgilariga oid mulohazalar keltiriladi [4: 9].

2-bob. “في إثبات الباري وتوحيد الصانع” (*Fi is’bati al-Bari va tavhid as-sano’*) – “Borliq

Yaratuvchisining mavjudligini isbotlash va Uni yagona deb e‘tiqod qilish haqida” deb nomlangan. Ushbu bobda dalillarni hujjatga asoslangan isbotlari va zaruriy hujjatlar jamlangan. Shuningdek, “U nima?”, “U kim?”, “U qanday?” degan savollarga javob berish haqida so‘z yuritiladi. Ushbu bobda borliq yagona va betakror ekani, unga o‘xshash hech narsa yo‘qligi, hamda shubha tug‘diruvchi o‘xshatishlarning botil ekani ta’kidlanadi [4: 9].

3-bob. “في صفات الباري وأسمائه” (*Fi sifati al-Bari’ va asma’ihi*) – “Allohning sifatlari va go‘zal ismlari haqida” deb nomlangan. Ushbu bobda Allohning sifatlari haqidagi mulohazalarni, ismlar haqidagi so‘zlarni, nimani Unga nisbat berish mumkin va nimani nisbat berish mumkin emasligini, hamda bu borada odamlar o‘rtasidagi ixtiloflarni bayon qilinadi [4: 9].

4-bob. “في تثبيت الرسالة وإيجاب النبوة” (*Fi tasbit ar-risala va iyjab an-nubuvva*) – “Risolatni isbotlash va nubuvvatning zarurligini bayon qilish haqida” deb nomlangan. Ushbu bobda odamlarga payg‘ambarning zarurligi haqidagi turli fikrlar aql va mantiq asosida, shuningdek, vahiyning mohiyati, hamda, rivoyatlar va og‘zaki manbalarga tayangan holda dalillanadi [4: 9].

5-bob. “في ذكر ابتداء الخلق” (*Fi zikri ibtido al-xalq*) – “Yaratilishning ibtidosi haqida” deb nomlangan. Ushbu bobda yaratilishning hodisa ekanini, uning boshlanishini dalillar va hujjatlar bilan isbotlash masalalari bayon qilinadi. Shuningdek, qadimgi mutafakkirlarning yaratilish va uning ibtidosi haqidagi qarashlari, musulmonlarning ulardan rivoyat qilgan hikoyalari zikr qilinadi. Bu bobda yana sanoiyalar (dualistlar), harroniylar, majusiylarning qarashlari, ahli kitobning bu masaladagi fikrlari, musulmonlarning “mabda” (boshlanish) haqidagi so‘zlari, eng to‘g‘ri mazhabni afzal ko‘rish masalalari keltiriladi. Shu bilan birga “Yaratilish nima uchun qilindi?”, “Qanday yaratildi?”, “Kim uchun yaratildi?” degan savollarga javob beriladi [4: 10].

6-bob. “في ذكر اللوح والقلم والعرش والكرسي والملائكة” (*Fi zikr al-lavh va al-qalam va al-arsh va al-kursi va al-maloika*) – “Lavh, Qalam, Arsh, Kursiy va farishtalar haqida” deb nomlangan. Bu bobda farishtalar majburiy amal qiluvchilarmi yoki ularga vazifa yuklatilganmi, ular solih insonlardan afzalmi, degan masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, “سِدْرَةُ الْمُنْتَهَى” (*Sidratul-muntaho*)ga oid xabarlar, jannat va do‘zax, do‘zaxning sifatleri, odamlar

orasidagi jannat va do'zax haqidagi turli qarashlar, do'zax ahlining sifatleri, jannat va do'zaxning abadiyligi yoki yo'q bo'lishi haqidagi ixtiloflar zikr qilinadi. Bu faslda yana sirot (ko'prik), meyzon (tarozi), havz (havzi kavsar) va sur (karnay) va boshqa narsalar haqida so'z yuritiladi [4: 10].

7-bob. *“في خلق السماء والأرض وما فيها”* (*Fi xalq as-samo va al-ard va ma fiyha*) – “Osmonlar va Yer hamda ulardagi mavjudotlarning yaratilishi haqida” deb nomlangan. Bu bobda osmonlarning sifati, falakning tavsifi, falakdan yuqoridagi narsalar, falaklar va osmonda mavjud narsalar bayon qilinadi. Shuningdek, yulduzlar va sayyoralarning sifati, quyosh va oy tasviri, ularning o'zaro munosabati, ularning harakati va shakllari haqidagi turli qarashlar zikr qilinadi. Quyosh va oy chiqishi hamda botishi, tutilishi, yulduzlarning ko'chishi va boshqa osmon hodisalari haqida so'z yuritiladi. Shamol, bulut, shabnam, momaqaldiroq, chaqmoq va havoda yuz beradigan boshqa hodisalar ham zikr qilinadi. Bu faslda quyosh, oy, yulduzlar, shihoblar (yulduz parchasi), zubban (kometalar), shamol girdobi, zilzila, tun va kunduz haqida ham mulohazalar keltiriladi. Yer va undagi narsalar, dengizlar, mamlakatlar, daryolar, shaharlar, orollar, tog'lar va ularning xususiyatlari, yer ostidagi narsalar haqidagi turli qarashlar ham bayon etiladi.

Shuningdek, ushbu bobda Qur'oni karimning turli joylari (A'rof surasi 54-oyat, Yunus surasi 3-oyat, Hud surasi 7-oyat, Furqon surasi 59-oyat, Sajda surasi 4-oyat, Qof surasi 38-oyatlari)da keluvchi “Alloh osmonlaru va yerni va ularning orasidagilarni olti kunda yaratdi” mazmunida kelgan oyatlar zikr qilinib, yaratilishdan oldingi muddat, Odam (a.s.)dan oldingi dunyo davri, jin va shaytonlarning yaratilishi haqida so'z yuritiladi [4: 11].

8-bob. *“في ظهور آدم وانتشار ولده”* (*Fi zuhur adam va intishor valadihi*) – “Odam (a.s.)ning zohir bo'lishi va zurriyotining tarqalishi haqida” deb nomlangan. Ushbu bobda hayvonlarning tuzilishi borasida faylasuflarning turli qarashlari, moddiy mavjudotlar va odamlar orasidagi ixtiloflar haqida bayon etiladi.

Shuningdek, Odam (a.s.)ning yaratilishi, u qayerda yaratilgani haqidagi turli fikrlar, unga ruh qanday puflanganligi, farishtalarning Odam (a.s.)ga sajda qilishi, Odam (a.s.)ga ismlarni va ularning ma'nosini o'rgatilishi, Odam (a.s.)ning jannatga kirishi va undan chiqishi, Odam (a.s.)dan zurriyot

olinishi, odamlar orasidagi Odam (a.s.) va uning qissasi haqidagi turli qarashlar zikr qilinadi.

Bu bobda yana Odam (a.s.)ning qiyofasi va uning tabiati, ruh, nafs va hayot masalalari, odamlar orasidagi turli fikrlar, qadimgi mutafakkirlar va ahli kitoblarning qarashlari, Qur'onda zikr qilingan oyatlar, rivoyatlar va odamlar o'rtasidagi munozaralar bayon qilinadi [4: 12].

9-bob. *في ذكر الفتن والكائنات وقيام الساعة وانقضاء* *“في ذكر الفتن والكائنات وقيام الساعة وانقضاء”* (*Fi zikr al-fitna va al-kainot va qiyam as-sa'a va inqido ad-dunya va fano al-alam va vujub al ba's*) – “Fitnalar, yuz beradigan hodisalar, Qiyomatning qoim bo'lishi, dunyoning nihoyasi, olamning foniyligi va qayta tirilishning vojibligi haqida” deb nomlangan. Bu faslda muarrixlarning Muhammad(s.a.v) ummati shari'atining muddati haqidagi rivoyatlar zikr qilinadi. Shuningdek, ushbu bobda qiyomat alomatleri va belgilariga oid xabarlar jumladan: fitnalar, oxir zamon voqealari, Dajjolning chiqishi, qora bayroqlar bilan Xurosondan chiqqan lashkar, Sufyoniy va Qahtoniy chiqishi, Mahdiy paydo bo'lishi, Qustantiniyani fath etilishi, Iso ibn Maryamning yer yuziga tushishi, quyoshning g'arb tomondan chiqishi, yer hayvoni (Dabbatul-Arz) ning chiqishi, tutun, Ya'juj va Ma'jujning chiqishi, Ka'baning yo'qolishi, mo'minlarning ruhini olib ketadigan shamol, Qur'onning ko'tarilishi, Adan tubidan chiqadigan olov odamlarni mahsharga haydashi kabi mavzular zikr qilinadi.

Shuningdek, sur (karnay) uch marta chalilishi, mahshar, sur tasviri, ahli kitob orasida Malak al-Mavt (o'lim farishtasi)ning sifatiga oid ixtiloflar, ikki karnay chalish orasidagi muddat, An'om surasi 128-oyatidagi “Illa ma sha'a Allah” jumlasini haqidagi turli talqinlar, o'liklarning tanalari qanday tiklanishi, mahshar va odamlarning yig'ilishi, mahshar maydoni, Yerning o'zgarishi, osmonning yig'ilishi va belgilangan kun haqida so'z yuritiladi [4: 13].

10-bob. *في ذكر الأنبياء ومدة أعمارهم وقصصهم* *“في ذكر الأنبياء ومدة أعمارهم وقصصهم”* (*Fi zikr al-anbiya' va muddat a'marhim va qisosihim va axborihim a'la nihoya al-ijoz va al-ixtisor*) – “Payg'ambarlar, ularning umr muddati hamda qissalari va xabarleri haqida nihoyatda muxtasar bayoni” haqida deb nomlangan bo'lib. Bu bobda payg'ambarlarning, xususan Qur'onda kelgan “Ulul-azm” payg'ambarlar haqida so'z yuritiladi. Har bir payg'ambar haqida yashagan Yoshi,

qissalari (asosiy voqealari) va ular haqidagi tarixiy xabarlar kabi uch turdagi ma'lumotlar beriladi.

Odam (a.s), Shis (a.s), Idris (a.s), Nuh (a.s), Hud (a.s), Solih (a.s), Ibrohim (a.s) va u kishining zurriyotlari, Iso (a.s) kabi payg'ambarlar haqida bayon etiladi. Bobning xotima qismida esa, Muhammad (s.a.v) haqida bayon etilib yakunlanadi [4: 14].

11-bob. *في ذكر ملوك العرب والعجم وما كان من مشهور*. “*Fi zikr muluk al-arab va al-a'jam va ma kana min mashhur amrihim va a'zamihim ila mab'as nabiyyina*”) – “Arab va ajam podshohlari hamda ularning mashhur ishlari va ulug'lari haqida” deb nomlangan ushbu bobda Nabiyy (s.a.v.)ning yuborilishigacha bo'lgan davrni qamrab olgan holda voqealar bayon etiladi [4: 14].

12-bob. *في ذكر أديان أهل الأرض ونحلهم ومذاهبهم*. “*Fi zikr adyan ahl al-ard va nihuluhum va mazhabuhum va aroihim min ahl al-kitob va g'oyrihim*”) — “Yer yuzidagi xalqlarning dinlari, fiqralari, mazhablari va aqidaviy qarashlari — ahli kitob va boshqalar haqida” deb nomlangan. Bu bobda ahli kitob va boshqa xalqlarning e'tiqodlari zikr qilinadi. Shuningdek, muqatta'a (ma'lum guruhlar), hind xalqining qadimgi turmush tarzi, urf-odatlar, ma'budlari, turli toifalari, ularning shariatlari, xitoyliklar, turklar shariatlari, xorazmiylar odatlari, sanaviylar (dualistlar), butparaştlar, majusiylar (otashparaştlar), mujarradlik tarafdorlari, johiliyat davridagi odatlar, xurramiylar, yahudiylarning, xristianlarning shariatlari, urf-odatlar, turli toifalari, turmush tarzlari, o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan Abu Iso al-Isfahoniy va boshqa turli firqa va xalqlar haqida so'z yuritiladi [4: 14].

13-bob. *في صفة الأرض ومبلغ عمرانها وعدد أقاليمها*. “*Fi sifat al-ard va mablag' imroniha va adad aqolimha va sifat al-bihar va al-anhar va ajaib al-ard va al-xolq*”) – “Yerning tavsifi, uning yoshi, iqlimlari soni, dengizlar va daryolar bayoni hamda yer va mavjudotlarning ajoyibotlari haqida” deb nomlangan. Ushbu bobda hindlar, tibetliklar, Ya'juj va Ma'juj, turklar, rumliklar, barbarlar va habashiylar kabi xalqlar va ularning mamlakatlari zikr qilinadi. Shuningdek, Arab mamlakatlari - Hijoz, Shom, Yaman, Mag'rib, Iroq, Jazira, shu bilan birga boshqa mamlakatlar, Ozarbayjon, Rumiya, Ahvoz, Fors, Kirmon, Sijiston, Xuroson tog'lari va Movarounnahr haqida so'z yuritiladi.

Bu bobda muqaddas masjidlar va fazilatli joylar, jumladan, Makka shahri zikr qilinadi. Shuningdek, chegara hududlari va rabotlar, yerning oxirgi nuqtalari, turli xalqlarning ajib odatlari, shaharlar va qishloqlar, ularning qurilishi va vayron bo'lgan joylar haqida ham ma'lumot beriladi [4: 15].

14-bob. *في ذكر أنساب العرب وأيامها المشهورة*. “*Fi zikr ansab al-arab va ayyamiha al-mashhura*”) – “Arab qabilalarining nasablari va ularning mashhur kunlari (tarixiy voqealari) haqida” deb nomlangan bo'lib unda, asosan arablar haqida ma'lumotlar muxtasar tarzda bayon qilinadi [4: 15].

15-bob. *في ذكر مولد النبي ﷺ ومنشئه ومبعثه إلى هجرته*. “*Fi zikr mavlid an-nabiy va mansha'ih va mab'asihi ila hijratihi*”) – “Nabiy (s.a.v.) ning tavalludlari, voyaga yetishlari, risolatga yuborilishlari va hijratgacha bo'lgan davr voqealari haqida” bayon qilinadi [4: 15].

16-bob. *في مقدم رسول الله ﷺ وسراياه وغزواته إلى وقت وفاته ﷺ*. “*Fi muqaddam Rasululloh va saroyahu va g'azavotihi ila vaqt vafatihi*”) – “Rasululloh (s.a.v.)ning hijratdan keyingi faoliyati, sariyalari va g'azotlari hamda vafotlariga qadar bo'lgan voqealar haqida” bayon etiladi [4: 15].

17-bob. *في صفة رسول الله ﷺ وخلقه وسيرته وخصائصه*. “*Fi sifat Rasululloh va xulqihi va siyratihi va xosoisihi va muddat umrihi va zikr azvajihi va avladihi va qorabatihi va xabar vafatihi*”) – “Rasululloh (s.a.v.) ning siyratlari, axloqlari, o'zlariga xos fazilatlar, umr muddati, zavjalari, farzandlari, qarindoshlari va vafotlari haqida” deb nomlangan bo'lib. Yuqoridagi mavzularga qo'shimcha ravishda Rasululloh (s.a.v) ning mo'jizalari haqida ham bayon qilinadi [4: 15].

18-bob. *في ذكر أفاضل الصحابة وأولي الأمر من المهاجرين والأنصار*. “*Fi zikr afazil as-sahaba va uli al-amr min al-muhajirin va al-ansar*”) – “Sahobalarning fazilatlarilari hamda muhojir va ansorlardan bo'lgan yetakchilar haqida” deb nomlangan bo'lib unda, sahobalar, ansorlar, muhojirlarning fazilatlar, umr davomiyliliklari, islom dinini qabul qilgan dastlabki vaqtlari, farzandlari haqida bayon etiladi [4: 16].

19-bob. *في مقالات أهل الإسلام*. “*Fi maqolat ahl al-Islam*”) – “Islom ahli fiqralari va ularning qarashlari haqida” deb nomlangan bo'lib. Bu bobda shialar, xoriijiyalar, mushabbihalar (Allohni jismga o'xshatganlar), mo'taziliylar va murji'iyalar fiqralari shu bilan birga so'fiylar va hadis ahlari kabi toifalar zikr qilinadi [4: 16].

20-bob. “في مدة خلافة الصحابة وما جرى فيها من” (Fi muddat xilafat as-sahaba va ma jara fiha min al-havodis va al-futuh ila zaman Bani Umayya) – “Sahobalar davridagi xalifalik muddati, unda yuz bergan voqealar va fathlar hamda Bani Umayya davrigacha bo‘lgan jarayonlar haqida” deb nomlangan bo‘lib. Unda Abu Bakr (r.a) xalifaligi, uning davrida yuz bergan ridda (islomdan chiqish) voqealari va fathlar zikr qilinadi. Umar (r.a) xalifaligi, uning davridagi fathlar, Usmon (r.a) xalifaligi, uning davrdagi fathlar va fitnalar, Ali ibn Abu Tolib (r.a) xalifaligi, uning davrdagi fitnalar, Jamal, Siffin va Nahrovon voqealari, xorijiytlarning unga qarshi chiqishi zikr qilinadi. Shuningdek, Hasan va Husayn (r.a)lar haqida ham zikr qilinib, Hasan ibn Ali (r.a) xalifaligi va uning davridagi voqealar bayon qilinadi [4: 16].

21-bob. “في ولاية بني أمية إلى آخر أيامهم وما كان” (Fi vilaya Bani Umayya ila axir ayyamihim va ma kana fiyhi min fitna Ibn Zubayr va al-Muxtar ibn Abu Ubayd) – “Bani Umayya hukmronligi oxirigacha bo‘lgan davr hamda unda yuz bergan Ibn Zubayr va Muxtor ibn Abu Ubayd fitnalari haqida” deb nomlangan. Bu bobda Ibn Zubayr fitnasi, Xayyor ibn Abu Ubayd voqeasi, Ziyodning qissasi, Mug‘ira vafoti, Hasan ibn Ali (r.a) vafoti, Muoviya tomonidan Yazid uchun bay‘at olinishi, Yazid ibn Muoviya hukmronligi va Husayn ibn Ali (r.a) ning qatl qilinishi, Abdulloh ibn Zubayr voqeasi, Harra jangining zikri, Yazid ibn Muoviya vafoti, Ibn Zubayr fitnasi va nihoyat Hattaj tomonidan Abdulloh ibn Zubayrning o‘ldirilishi, Abdulmalik ibn Marvon davrida bo‘lgan voqealar va Umaviylar hukmronligining oxirgi kunlari bayon qilinadi [4: 17].

22-bob. “في صفة بني هاشم وعدة خلفاء بني العباس” (Fi sifat Bani Hashim va adad xulafa Bani Abbas min sanah 132 ila sanah 350) – “Bani Hoshim haqida hamda hijriy 132-yildan 350-yilgacha bo‘lgan Bani Abbas xalifalarining soni haqida” deb nomlangan. Xalifa Muti‘lillah davrining oxirigacha Abbosiylar xalifaligi haqida ma‘lumotlar bayon etiladi [4: 17].

Tohir Maqdisiy “al-Bad va-t-tarix” asarida yozgan ma‘lumotlari orasida Tavrotga oid ma‘lumotlar muhim o‘rin tutadi. Muallif ushu qismda turli Tavrot qo‘lyozmalari va tarjimalaridan foydalanadi. Tohir Maqdisiyning Tavrotga munosabati ikki xil bo‘lgan. Birinchidan u Tavrot

matnlari yahudiylar tomonidan o‘zgartirilganligi bois, undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerakligi haqida ogohlantiradi. Ikkinchidan esa, u aynan Tavrotning ba‘zi parchalarini Muhammad (s.a.v)ning bashoratlari sifatida talqin qiladi [7: 323].

Tavrot yahudiylar tomonidan o‘zgartirilgan degan da‘voga kelsak, Tohir Maqdisiy Tavrot matnlari ilk davridayoq o‘zgartirishlarga duch kelganini ta’kidlaydi. Muallif, “Musos (a.s) payg‘ambar hayotlik paytida, Sinay tog‘ida u bilan birga bo‘lgan 70 ta oqsoqol ilohiy vahiyni buzib ko‘rsatishgan. Tavrot, Navaxudonosr tomonidan yondirib yuborilganidan so‘ng Isroil xalqi uchun uni qayta tiklagan kotib Ezra vafotidan keyin matn yanada ko‘proq buzilgan”, deb ta’kidlaydi. Tohir Maqdisiyning yozishicha, “Novaxudonosr Quddusni vayron qilgan vaqtda Tavrotni yoqib yubordi va Isroil xalqini Bobilga surgun qiladi. Ularning aytishicha Ezra yahudiylar uchun yangi Tavrotni taqdim etmagunicha, Tavrot ular orasida yo‘qolib ketgan edi. Ezra kitobni tugatib shogirdlaridan biriga topshirdi va vafotidan keyin uni xalq oldida o‘qishni buyurdi. Ular bu shogird qo‘shimchalar kiritish orqali matnni buzganligini da‘vo qilishdi”, deb bayon qiladi [7: 324].

Tohir Maqdisiy Tavrotidagi ba‘zi so‘zlarning o‘zgarishiga sabab, uni Musos (a.s)dan keyin yashagan odamning qayta yozganligidir, deya ta’kidlaydi. Chunki, unda Musos (a.s) qanday vafot etgani, Nunning o‘g‘li Yushaga so‘nggi amrlarini qay tarzda bergani, Isroilliklarning qanday motam tutib yig‘lagani va boshqa shu kabi Musoga oid narsalar haqida hikoya qilinadi. Tohir Maqdisiy ushbu so‘zlarni Allohning ham Musos (a.s)ning ham so‘zlari emasligini, bu so‘lar har qanday aql yuritadigan inson uchun ochiq dalil ekanligini ta’kidlaydi [7: 325].

Tohir Maqdisiy “al-Bad va-t-tarix” asarining yahudiylarga oid ma‘lumotlar keltirgan qismida yahudiylarning oqimlari, urf-odatlar, manbalari haqida ma‘lumot berar ekan, og‘zaki ma‘lumotlarni yozma manbalar bilan to‘ldirgan, chunki olim “شَرَائِعُ الْيَهُود” (Sharai al-Yahud) – “Yahudiylarning qonunlari” nomli sirli kitobga havola qiladi va Tavrot tarjimasida ba‘zi narsalarni o‘qiganini qayta-qayta ta’kidlaydi. Shuningdek, Tohir Maqdisiy “al-Bad va-t-tarix” asarida yahudiyar va ularning Tavroti, tarjimalari, nusxalari haqida batafsil bayon qilib, islom dini manbalari bilan ham qiyoslaydi.

Tohir Maqdisiy musulmon bo'lmagan odamlardan manba olishni va ulardan foydalanishda, ularning ma'lumotlari Qur'on va islom ta'limotlariga zid bo'lmasa qabul qilish mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq, islom ta'limotiga zid bo'lgan fikrlarni qat'iy rad etilishi kerakligini aytib o'tadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida, Tohir Maqdisiy islom tafakkuri tarixida qiyosiy dinshunoslik, tarix va kalom ilmlarini o'zaro bog'liq holda o'rgangan olimlardan hisoblanadi. Uning hayoti haqida ma'lumotlar kam bo'lishiga qaramay, "al-Bad va-t-tarix" asari orqali olimning keng dunyoqarashi, ilmiy kuzatuvga tayangan uslubi va turli din vakillari bilan bevosita muloqot qilgan holda ma'lumot to'plagani yaqqol namoyon bo'ladi. Tohir Maqdisiy boshqa dinlarni faqat rad etish yo'lini tutmay, ularni manbalari asosida tushunish, qiyoslash va islom aqidasi nuqtai nazaridan baholashga harakat qilgan.

Asar tarkibidagi dinlar va mazhablar haqidagi ma'lumotlar, yahudiylilik, xristianlik, majusiylilik hamda boshqa qadimgi e'tiqodlar haqidagi tahlillar uning "Milal va nihol" adabiyoti shakllanishidagi muhim bo'g'inlardan biri ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Qur'on, hadis, tarixiy rivoyatlar va boshqa dinlarga oid yozma hamda og'zaki manbalardan foydalanishi uning ilmiy metodologiyasi nisbatan tanqidiy va qiyosiy yondashuvga asoslanganini anglatadi.

Umuman olganda, Tohir Maqdisiyning ilmiy merosi nafaqat tarixiy manba, balki dinshunoslik va kalom ilmini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u islom tafakkurida boshqa dinlarni o'rganish madaniyatining ilk namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. "Al-Bad va-t-tarix" asari bugungi kunda ham dinlararo munosabatlar, qiyosiy dinshunoslik va islom tafakkuri tarixini tadqiq etishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdülkerim Özeydin. El-Bed' ve't-târîh. TDV İslâm Ansiklopedisi, TDV İslâm Araştırmaları Merkezi, 1992. – J. 5. – S. 560. internet: <https://islamansiklopedisi.org.tr/el-bed-vet-tarih> (kirish sanasi: 19.01.2026).
2. Abdupattayev M.M. Sharq musulmon dinshunosligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 164 b.
3. al-Mutahhar ibn Tohir al-Maqdisiy. Kitob al-Bad' va't-tarix. Parij: Ernest Leroux, 1909. – J.1. – P. 224
4. Betül Çiçek, Mutahhar b. Tâhir el-Makdisî ve Kelâmî Görüşleri, İstanbul 29 Mayıs Üniversitesi, 2020, S. 115.
5. Hasan Çiftçi. Kitâbü'l-Bed' ve't-Târîh Üzerine Bir Araştırma". Bingöl Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, (Aralık 2020/2:16), S. 436.
6. <https://usul.ai/t/bad-wa-tarikh>
7. Jacques Waardenburg (ed.), Muslim Perceptions of Other Religions: A Historical Survey, New York–Oxford: Oxford University Press, 1999. P. 366.
8. Jacques Waardenburg. Müslümanların Diğer Dinlere Bakışları. – İstanbul: Ensar Neşriyat, 2006. – S. 767.
9. Süleyman Sayar. MAKDİSÎ, Mutahhar b. Tâhir. TDV İslâm Ansiklopedisi, TDV İslâm Araştırmaları Merkezi, – J. 27. – S. 560. <https://islamansiklopedisi.org.tr/makdisi-mutahhar-b-tahir> (10.02.2026)
10. Shamsiddin Zahabi. Siyar alam an-nubala. – Bayrut: Dor ar-risala, 1996. – J. 19. – 694 b.